

## **BADIIY ASARLARDA ISHQ-MUHABBAT TALQINI.**

**Imomova Ozoda SHuhrat qizi**  
**Mamarasulova Baxriniso Alisher qizi**  
[Ozodaimomova20@gmail.com](mailto:Ozodaimomova20@gmail.com)  
[mamarasulovabaxriniso@gmail.com](mailto:mamarasulovabaxriniso@gmail.com)

Denov nomidagi tadbirkorlik va pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:o'zbek tili yo'naliishi talabalari.

### **ANOTATSIYA.**

Love is stronger than the horror of death and dying. Only it, only love, can move the world.

**KALIT SO'ZLAR:**Ishq,muhabbat,sevgi,oshiq,majnun,ruhiyat,mehr,boqiyilik.

Ishq bu so'zga ta'riflar yetmasa kerak.Ammo bu so'zning ma'nosiga yetish uchun ko'pchilik faylasuf,yozuvchi, shoirlar o'z fikir mulohazalarini aytib o'tishgan.Ishq so'zining bir nechta ma'nolari bo'lib,birinchi ma'nosi boshqa jinsdagi shaxsga berilish,intilish(moyillik) his -sezgisidir.Ya'ni buni misollar orqali ko'rsak,Majnunning Layliga ishqini misol qilib keltirsak bo'ladi.

Ishqni ko'chma ma'noda zo'r ichki intilish,ishtyoq degan ma'nolarda ham qo'llasak bo'ladi.Jumladan,odatda,navbahor kelishi bilan qalbi yaratish ishq bilan tug'yon uruvchi saxiy bog'bonlar,paxtakorlarning ishqini,hamda ajabo,ustozning inson qalbiga slogan ijod ishq kabi misollarni ta'kidlasak bo'ladi.

Ishq so'zining boshqa tillardagi tarjimasini izohlab o'tamiz.

Jumladan,Ispancha:amor

Inglizcha:love

Fransuzcha:amour

Italyancha:amore

Maoricha:aroha

Mo'g'ulcha:xayr (khair)

Olmoncha:liebe

Portugalcha:amor

Turkcha:sevda

Ruscha:любовь страсть

Kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ishq,muhabbat,sevgi va shu kabi so'zlarning ma'nosi cheksizdir.Muhabbat-ishqi haqiqiy ya'ni ollohga bo'lgan va ishq majoziy ya'ni insonning insonga muhabbatini tushunishimiz mumkin.Ishqi majoziy o'tkinchidir,ishqi haqiqiy esa boqiyidir.Ishqi majoziy-insonning insonga muhabbat, buni ham inson qalbiga olloh soladi.Bu borada Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostoni orqali ochib bergan.Bunda Qaysning ko'ngliga olloh asir bo'ldi.Laylining yuzida olloho ni ko'rdi.Bu ishq o'ti shunchalik kuchli ediki,Qaysni Majnunga aylantirib qo'ydi.Majoziy ishq insonni majnun qilish darajasiga yetkazmaydi."Majnun"so'zi dalli,devona,jinni kabi so'zlar bilan o'zakdoshdir.

"Layli va Majnun" dostoni shunchaki ishq haqidagi doston emas,balki olloh ishq yo'lida jon bergen oshiqlar madhidir.Majnun Layli uchun jon berishga ham tayyor turadi.Hatto so'z orqali ham Layliga ozor berishni istamaydi.Bu ishq uni esdan og'diradi.O'z ismini,hattoki ota-onasini unutib qo'yadi.Isming kim? Desalar Layli.Otang kim?desalar Layli.Kimni so'rasha ham Layli deb javob beradi.O'zligini yo'qotadi .Bu holatdan qo'rqqan ota-onasi uni haj safariga jo'natadi.Otasi o'g'limni bu darddan halos et deb zorlanadi.O'g'li esa xudoga zorlanib,ey ollohim,menden Layli ishqini tortib olma,men bu ishq bilan baxtiyorman.Meni bundan mosuvo etma deb iltijo qiladi.Shu holatni ko'rghan otasi hayron qoladi.Oshiq-oshiqlik darajasining eng yuqori cho'qqisiga yetib bo'lgandi.Oxirgi chora ham uni ishq og'ushidan xalos eta olmadi.Haj atrofida bir nechta kishilar nomoz o'qib turganjoyida Majnun ularning oldini kesib o'tib ketadi.Bu holatni ko'rgan kishilar

hayron qolib,nomozini to'xtatib,Majnunga dedi;Ey sen telbanamo yigit nega bizlarning nomozimizni buzib,oldimizdan o'tib ketding deya so'rashdi.Shunda Majnun agar sizlar ollohnin chin qalbdan sevganlarizda edi,meni o'tib ketganimni ham bilmas edingiz.Men telba esa,Layli ishqida ovvora bo'lib,sizlarni ko'rmay o'tib ketibman,meni ma'zur tutingizlar deb yo'lida davom etib ketadi.Majnun jismi ishq olovi bilan to'ladi.Bu olov asta-sekin butun vujudini yoqa boshlaydi.Oxirida tana yonib ketadi.Ammo ruh hali ham ishqdan mosuvo bo'lolmaydi.Alisher Navoiy Layli va Majnun bu dunyoda birga bo'lisholmasa ham,narigi dunyoda birga bo'lishadi deya xitob qilgandek bo'laveradi.Bu ishq boqiydir.Ishq-muhabbat barcha asarlar uchun asos bo'ladigan bosh g'oya,insonlar uchun esa, hayotini nurga to'ldiruvchi,quvonch uyg'otuvchi nozik bir tuyg'udir.

Ishq-biron shaxs yoki narsaga bog'lanib qolish,qalbi,ko'zi,butun vujudi bilan uning iskanjasida qolish demakdir.Hayot odamzotga har qancha lazzat va sarxushlik ato etmasin,uning nihoyasi achchiq ekan haqiqat.Teranroq mulohaza yuritsak,majoziy ishq odamzotga tiriklik va o'lim mayini torttiradi.Navoiy bu ikkisining hosilasi o'zlikdan voz kechish va uning g'amidan qutulish tashvishini chekish ekanini bildirgan.Ishq insonni ruhiy poklaydi.Shu bilan birga azob-mashaqqat ham beradi.Ishq faqatgina insonning insonga emas,balki tevarak-atrofimizdagি insonlarga ya'ni ota-onamiz,yor-do'starimiz hattoki biron hayvon yoki buyumga bo'lgan muhabbatni ham tushunishimiz lozim.Jumladan,Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom"asarini oladigan bo'lsak,bunda Ziyodulla chavandozning otiga bo'lgan muhabbatini ham ifodalaydigan bo'lsak ,ehtimol insonlar ham bir-biriga bu qadar mehr qo'yisholmas.Ot ham Ziyodulla chavandozga mehr qo'yadi.Hattoki Ziyodullani shafqatsiz insonlar qo'lidan qutqarib qoladi.Bu asar orqali insonning hayvonga,hayvonning insonga bo'lgan mehr-muhabbatini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab bergan.Ishq haqidagi asarlar,she'rlar,dostonlar shunchalik ko'PKI,sanashning iloji yo'q.Chunki har bir asarda ishq-muhabbat kuyylanadi.Ishq-muhabbatsiz asarlar,go'yoki ruhsiz yozilgan so'zlar jilosidan iborat bo'lib qoladi.Ishq-muhabbat haqida mashhur faylasuf,yozuvchilarning aforizmlari ya'ni ular aytgan so'zlarini keltirib o'tamiz.Mashhur faylasuf Jaloliddin Rumiy "faqat yurakdagina eng baland samoviy yuksaklikka ko'tarilish mumkin"deb ta'kidlagan.Bunda,sevgi shunday buyukki,inson ruhini ko'klarga ko'taradi.Bu ko'k shu qadar olisdaki,inson oyog'i bilan yetib borolmaydi,ammo qalb orqali ko'tarila oladi,deya ishq-muhabbatga ajoyib ta'rif beradi.

Kichkina shahzoda asari muallifi Antuan De Sent Ekzyuperi "Sevgi-bu bir-biriga tikilish emas,bir-birining ichki dunyosini o'rganish deya aytgan.Yozuvchi bu bilan nima demoqchi,avvalo sevgi faqat go'zal yuzda emas,balki qalbda bo'lishini aytmochi.Yuzning go'zalligi o'tkinchi,ammo qalb go'zalligi muqimdir.Chunki,eng latofatli ayol ham vaqt o'tishi bilan o'z jozibasini yo'qotishi aniq,biroq qalb go'zalligi aslo qarimaydi.Shu o'rinda Erkin Vohidovning "davron dan o'kinch"she'rini keltirib o'tmoqchiman.

Kechagi kelinchak bugunda-kampir

Asal,novvot edi,endi-qalampir.

Buncha ham ayovsiz ekansan,davron,

Sendan arazladim

Bor ,hafsalam pir.

Bu she'r majoziy ma'noda bitilgan bo'lib,bir yosh kelinchak timsolida zamon,davron ya'ni vaqtning tez o'tishini,hamma insonlar ham o'tkinchilagini ta'kidlaydi.Bu she'rdan ko'rinish turibdiki,yuz go'zalligi vaqtinchalikekanligi,ammo qalb go'zalligi abadiyliginita'kidlaydi.Shunday ekan insonlar bir-birining ichki dunyosini o'rganishlari lozim.Ishq-muhabbat va sevgi atamalariga shu qadar ko'p ta'riflar borki,ularni hisobiga yetolmaymiz.

Mashhur rassom Leonardo Da Vinci sevgiga shunday ta'rif beradi.Sevgi hech qachon keksaymaydi.Ehtimol kiprik to'kilib,soch oqarar balki yanoqlardan nur ketib,ajin tushar,lekin sevgan yurak hech qachon kishining qahraton sovug'ini his qilmaydi.Bu so'zlar orqali rassom,sevgi boqiy u qarimaydi,har qanday holatda ham,insonni qalban yuksaltira oladi.

Bu maqola bilan insonlarni sevishga majburlamoqchi emasman.Shunchaki ishq-muhabbat asarlarning bosh g'oyasi,insonlarning ruhiy quvonch manbai ekanligini ta'kidlamoqchiman.Muhabbat bor ekan insonlar barhayotdir. Hozirda insonlar Majnundek sevisholmaydi.Majnundek sevishlari uchun ularning qalbiga ollo

asir bo'lishi kerak.Tasavvufda ishq avvalo ollohga so'ng esa uning bandalariga bo'ladi deyilgan ekan.Shundan kelib chiqib,haqiqiy ishqga yetishish mushkuldir.

Ishq-muhabbat abadiy va haqiqiy bo'lishi uchun shu narsalarga amal qilish lozim.Avvalo insonlar qalbini poklashi zarur .Nafaqat qalbini, jismi va ruhini ham poklashlari zarur ;

Yaxshi insonlar borligiga ishonishlari kerak,Ya'ni bu hayotda yomon insonlar bilan bir qatorda yaxshi insonlar ham borligini unutmasligimiz kerak;

O'ziga munosib qalb sohibini tanlashlari lozim.Ammo sevgi sarhadsiz,u chegara bilmas,ba'zan bu narsalarga e'tibor berolmay qoladi kishi.Sevgi bor ekan,asarlar bordir.Sevgi bor ekan hayot bardavomdir.Ishq-muhabbat badiiy adabiyotning asosidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.A.Navoiy Xamsa Toshkent-2021-yil Yangi asr avlod. "Layli va Majnun" dostonidagi 242-243-245-260-betlar.
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati
- 3.Elektron kutubxona ma'lumotlari;
- 4.Google ma'lumotlari.
- 5.Internet ma'lumotlari.
- 6."Guldasta" gazetasidan;
- 7.Oybek "Tanlangan asarlar" asaridan
- 8.Ziyouz.com kutubxonasi
- 9.T.Murodning "Ot kishnagan oqshom" asaridan;
- 10.E.Vohidovning "Davrondan o'kinch" she'ri